



“ILK DEVON” RUBOIYINING “BADOYI’U-L-BIDOYA” ORQALI “G’AROYIBU-S-SIG’AR”GA JORIYLANISHI VA TRANSFORMATSIYA JARAYONI

Shavkat Yangiboyev,

Xalqaro innovatsion universitet O‘zbek filologiyasi va jurnalistika kafedrası o‘qituvchisi

THE TRANSFORMATION AND PROCESS OF THE RUBAIY OF THE “FIRST DEVON” INTO THE “GHAROIBU-S-SIGAR” THROUGH “BADOYI’U-L-BIDOYA

Shavkat Yangiboyev,

Lecturer of the Department of Uzbek Philology and Journalism of the International Innovation University

ТРАНСФОРМАЦИЯ И ПРОЦЕСС РУБАИ «ПЕРВОГО ДЕВОНА» В «ГАРОЙБУ-С-СИГАР» ЧЕРЕЗ «БАДОЙУ-Л-БИДОЙЯ»

Шавкат Янгибоев,

преподаватель кафедры узбекской филологии и журналистики Международного инновационного университета



E-mail:

shavkatyangiboev72@gmail.com

Orcid: 0009-0001-4419-4324

Doi:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17162315>

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Ilk devon”dagi ruboiylar matni Alisher Navoiyning “Badoyi’u-l-bidoya” va “G’aroyibu-s-sig’ar” devonlaridagi matnlar bilan o‘zaro taqqoslangan. Taqqoslash natijasida ruboiylar matnidagi transformatsiya jarayoniga aniqlik kiritildi.

Kalit so‘zlar: devon, ruboiy, joriylanish, transformatsiya.

Аннотация: В статье проводится сравнение текста рубаи «Первого дивана» с текстами диванов Алишера Навои «Бадойу-ль-бидоя» и «Гарайибу-с-сигар». В результате сравнения выявляются процессы трансформации текста рубаи.

Ключевые слова: диван, рубаи, введение, трансформация..

Abstract: This article compares the text of the rubaiyats in the "First Divan" with the texts in Alisher Navoi's divans "Badoyi' u-l-bidoya" and "Gharayibu-s-sigar". As a result of the comparison, the transformation process in the text of the rubaiyats was clarified.

Keywords: divan, rubaiy, introduction, transformation.

KIRISH

Alisher Navoiyning kichik lirik she’rlari sirasida ruboiy alohida o‘rin tutadi. Ilk devon”da 41 ta, “Badoyi’u-l-bidoya”da 85 ta, “G’aroyibu-s-sig’ar”da 133 ta ruboiy keltirilgan bo‘lib, bu raqamlarning devondan devonga o‘sib borishi shoir ijodiy yo‘lini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.



ADABIYOTLAR TAHLILI

Navoiy ruboiylarini o‘zbek adabiyotshunosligida tez-tez murojaat qilib turiladigan obyektlar sirasiga kiritish mumkin. Ayniqsa, adabiyotshunos Y.Is’hoqov o‘zining “Alisher Navoiyning ilk lirikasi” nomli tadqiqotida shoir ruboiylaridagi matniy farq va tafovutlarni birinchilardan bo‘lib tekshirib ko‘rdi [Исҳоқов: 1965, 132-134]. Keyinchalik I.Haqqulov “O‘zbek adabiyotida ruboiy” nomli monografiyasida shoir ruboiylariga atroflicha e‘tibor qaratdi va bu she‘rlarning nafaqat o‘zbek, ayni vaqtda Sharq she‘riyatidagi mavqeini belgilab berdi [Ҳаққулов: 1981, 100]. M.Rashidovanning “Alisher Navoiy “Nazmul-javohir” asarining matniy tadqiqi” monografiyasi ana shu silsilaning uzviy davomi hisoblanadi. Tadqiqotchi tomonidan bu mo‘tabar asarning ilmiy-tanqidiy matn asosidagi transliteratsiyasining amalga oshirilgani matnshunosligimizdagi jiddiy yutuqlardan biridir [Ergasheva: 2022, 132-229].

METODOLOGIYA

“Ilk devon”dan shoirning 41 ta ruboiysi o‘rin olgan. Bu ruboiylar keyinchalik “Badoyi’u-l-bidoya” va “G‘aroyibu-s-sig‘ar” devonlariga ham kiritilgan¹. Ruboiylarning mazkur 3 ta devondagi joriylanishi quyidagi jadvalda aks etgan. Mazkur ruboiylarning devonlardagi joriylanishi tartibi bilan quyidagi jadval orqali tanishish mumkin.

Ruboiyning 1-misrasi	Ruboiyning “Ilk devon”dagi tartib raqami	Ruboiyning “Badoyi’u-l- bidoya”dagi tartib raqami	Ruboiyning “G‘aroyibu-s- sig‘ar”dagi tartib raqami
Subhonallohi xoliqi z-ul-majdu alo	1	1	1
Ko‘k po‘yavu sayr ila talabgor sanga	2	2	2
Yo Rabki, inoyatingni yor ayla manga	3	3	3
Nomangki, tirikligimdin uldur matlub	4	7	11
Bir aybg‘a garchi xalq qilg‘ay mansub	5	9	13
Su ko‘zgusini bog‘ aro aylarda shitob	6	10	14
Gardun uza bazm uchun maqom ayladi tut	7	12	18
Chun xanjari hajring manga qat’ etti hayot	8	15	21
Bo‘ldi mening o‘limgimga savdo bois	9	16	22
Ko‘nglumni olibdur ul shahi sabzdavoj	10	17	23

¹ Biz “Badoyi’u-l-bidoya” va “G‘aroyibu-s-sig‘ar” devonlarining Alisher Navoiy “Mukammal asarlar to‘plami” (XX jildlik) nashrlaridan foydalandik. Q.: Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. XX jildlik, I jild. -Toshkent: Fan, 1987. -689 b.; III jild. -Toshkent: Fan, 1988. -575 b.



Gul vaqti muyassar o'lsa gulfom qadah	11	19	25
Ruhumg'aki maydin erdi har lahza futuh	12	20	26
Qo'rqutma meni tamug'din, ey zohidi yax	13	21	27
Ruxsori uza xollarin ul dilband	14	22	28
Ey sharbati la'ling obi hayvondin alaz	15	24	31
Budur tilagimki, ulki, ma'budung erur	16	25	32
Soqiy, badanimni notavon etti xumor	17	27	34
Har garmraveki, bo'lg'ay ul koshifi roz	18	30	44
Ul ko'zki, dame bo'lmadi sog', ey qorako'z	19	34	49
Jonbaxsh labing chashmayi hayvonmu emas?!	20	35	50
Mahubqa e'timod qilmoq bo'lmas	21	37	52
G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish	22	39	55
Yo'q bodayi vasl, obi hayvon ul emish	23	41	57
Soqiy, meni xorxordin ayla xalos	24	43	60
Ber jomu ol, ey mug'bacha, jonimni evaz	25	44	61
Kim istasa saltanat, saxodur anga shart	26	45	62
Bu davrda yo'q sen kebi xushxon hofiz	27	46	63
Kim aylasa soqiyi gulandom tama',	28	47	64
Bir gul g'amidin dedim qo'yay bag'rima dog'	29	50	67
Nomang yetibon topti ko'ngul izzu sharaf	30	52	69
Yuz mehnatu g'am ko'ngluma yetkurdi firoq	31	54	71
Yo'q dahrda bir besaru somon mendek	32	57	77
Zohid, senga hur, manga jonona kerak	33	59	79
Gar dilbar emas malakvashu hurxisol	34	60	84
Turmay meni zoru notavon birla ko'ngul	35	62	86
Mug' dayri sari bugun tamanno qildim	36	65	92
Bahru kemadin ko'ngulda ko'ptur alamim	37	68	95
Dayr ichra tilab jomi hiloliy partav	38	76	107
Gar qilsa kishi qilib gunohe, tavba	39	77	109
Yo koshifi asrori nihon bo'lsa kishi	40	78	115
Oxir dami umr etsa shitob, ey soqiy	41	82	119

Mazkur jadval Alisher Navoiy devonlariga kiritilgan ruboiylarining yozilgan vaqti haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. Jadvaldan ma'lum bo'lishicha, dastlabki uch ruboiy har uchala devonda ham dastlabki uch o'rinda joriylangan.

Ma'lumki, devon tartib qilish an'anasi mavjud. Unga muvofiq har bir janr devonga alifbo tartibida va mavzu jihatidan hamd, na't, munojot va boshqa mavzular ketma-ketligiga qat'iy amal qilingan holatda joylashtiriladi. Qayd etganimiz 3 ta ruboiy shoirning yigitlik davri (20-25 yosh) lirikasiga oid bo'lib, Alisher Navoiy "Badoyi'u-l-bidoya"ni, keyinchalik "G'aroyibu-s-sig'ar"ni tartiblayotganida o'sha



yoshlikda yozilgan ruboiylardan foydalanib qo‘ya qolgan. Ya‘ni bu devonlar uchun maxsus (hamd, na‘t yoki munoajat) ruboiy yozib o‘tirmagan.

Ruboiylar devondan devonga ko‘chish jarayonida matniy farq va tafovutlarga uchragan. She‘rlarning “Ilk devon”dagi matni bilan narigi ikki devondagi matni orasida farqlar yuzaga kelishining bir nechta sabablari bor. Asosiy sabab shuki, “Ilk devon” matni kotib (Sultonali Mashhadiy) yoki kitob buyurtmachisining alohida mas‘uliyati bilan yuzaga kelmagan. Undagi o‘nlab, yuzlab imloviy xatolar, so‘zlarning uslubiy va stilistik jihatdan noto‘g‘ri ishlatilgani, misralar va hatto baytlar osha kompozitsion farqlarning borligi shunday xulosa chiqarish uchun asos bo‘la oladi. “Badoyi‘u-l-bidoya” va “G‘aroyibu-s-sig‘ar” devonlari esa bevosita shoirning o‘z nazaridan o‘tgan. Shundan kelib chiqib, matnlardagi o‘zgarishlarning muvofiq yoki muvofiq emasligi borasida gap borganda keyingi ikki devon matniga ustunlik berish tarafdorimiz.

“Ilk devon” va narigi devonlar matni o‘zaro taqqoslanganida rang-barang o‘zgarishlarni ko‘plab uchratish mumkin. “*Ishqimg‘a yamon ko‘z etmagay emdi gazand*” (№14) misrasida *ishqimg‘a* so‘zining *ayshimg‘a*, *etmagay* so‘zining *etmagan*, “*El anga rafiqu mehribon bo‘lmas emish*” (№22) misrasida *rafiqu* so‘zining *shafiqu*, “*Oltun qadah ichra gar qizil gul butsa*” (№22) misrasida *qadah* so‘zining *qafas* so‘zi bilan almashgani shular jumlasidandir. Bularning ba‘zilari Alisher Navoiyning o‘zi tomonidan amalga oshirilgan rejali o‘zgartirishlar bo‘lsa², ba‘zilari kotiblar tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatolardir.

Ba‘zi misollarga e‘tibor qilamiz. Quyidagi ruboiy har uchala devondagi 1-ruboiy sanaladi:

Subhonallohi xoliqi z-ul-majdu alo
Kim, andin erur to‘la xalo birla malo.
Gar [mehr] aning misli degaylar uqalo,
Mehr ollida zarra yanglig‘ o‘lg‘ay masalo.

Ruboiyning 3-misrasidagi “mehr” so‘zi “Ilk devon”da yo‘q [Navoiy: 1968, 138^a sahifa]. Kotib uni unutib yozmay ketgan. Ushbu so‘z qo‘llanilmasa misraning mazmunida nimadir yetishmayotgani ayon.

Mana bu ruboiyga diqqat qilamiz (ketma-ketlik bo‘yicha “Ilk devon”dagi ikkinchi ruboiy):

Kim po‘yavu sayr ila talabgor sanga,
Kun sorg‘oribon ishqda bemor sanga.

² Alisher Navoiyning o‘zi tomonidan amalga oshirilgan tahrir ishlarini o‘z vaqtida adabiyotshunos Y.Is‘hoqov atroflicha o‘rgangan (q. Исхоков Ё. Алишер Навоийнинг илк лирикаси. –Т.: Фан, 1965. –140 б.)



Oy dog' ila qulluq aylab izhor sanga,

Tun anjumi naqdidin xaridor sanga [Navoiy: 1968, 138^a – 138^b sahifa].

Ruboiyning birinchi so'zi bo'lmish "kim" o'rnida "Badoyi'u-l-bidoya" va "G'aroyibu-s-sig'ar"da "ko'k" so'zi ishlatilgan. Bir qarashda *kim* yoki *ko'k* so'zlarining qaysi biri ishlatilganida ham umumiy mazmunga ko'p ham ta'sir qilmagandek tuyuladi. Lekin keyingi misralardagi *kun*, *oy*, *tun*, *anjum* so'zlari *ko'k* so'zi bo'lishini mantiqan talab qiladi. Alisher Navoiy ruboiy tahriri jarayonida *kim* so'zini *ko'k* so'zi bilan almashtirgan.

Tartib bo'yicha uchinchi ruboiyning 2-misrasida ham xuddi shunday holatga duch kelamiz:

Yo Rabki, inoyatingni yor ayla manga,

Qullug'da hidoyatingni bor ayla manga,

Ham kahfi kifoyatingni dor ayla manga,

Ham durri inoyating nisor ayla manga [Navoiy: 1968, 138^b sahifa].

"Ilk devon"da *qullug'da*, "Badoyi'u-l-bidoya" va "G'aroyibu-s-sig'ar"da "yo'qluqqa" so'zlari ishlatilgan. Misra mazmuni:

Qullug' (qullik) so'zi ishlatilganda: "(Men sening) *qulingman*, *men (quling)ga hidoyatingni bergin (bor ayla)*".

Yo'qluqqa (oxirat, qiyomat) so'zi ishlatilganda: "*Menga yo'qlikda (oxiratda, qiyomatda) hidoyat bergin (bor ayla)*".

Ko'rinadiki, mazmunan keskin farq yuzaga kelmaydi. Lekin o'ta daqiq ma'no izlanganda *yo'qliqqa* so'zi ruboiydan ko'zlangan maqsadga muvofiq keladi va bu tuzatishni ham shoirning o'zi amalga oshirgan.

Yana shuni ham ta'kidlash o'rinliki, garchi Alisher Navoiyning o'zi tomonidan tartiblangan bo'lsa ham, "Badoyi'u-l-bidoya" va "G'aroyibu-s-sig'ar"ning o'zida ham ruboiylarning yozilishida farqlar uchraydi. Ya'ni tanlangan ruboiy bu devonda boshqa, u devonda boshqa yozilgan. Masalan, "*Har garmro'yki / garmraveki, bo'lg'ay ul koshifi roz*" (BB №30 – G'S №44), "*Mahbubqa e'tiqod / e'timod qilmoq bo'lmas*" (BB №37 – G'S №52).

Garmro'yki – *gamravki* so'zlarining arabiy alifboda yozilishida farq bo'lmasda, ma'nosi bir-biridan farq qiladi. Lekin Alisher Navoiy dahosining kuchi ayni shu ruboiyda yana bir bor namoyon bo'lgan. Ruboiyda u so'zni ham, bu so'zni ham ishlatish mohiyatan xato bo'lmaydi (shu ruboiydagi *harimi (manzil)* so'zi "G'aroyibu-s-sig'ar"da *qarimi* shaklida umuman tushunarsiz ifodalangan va bu – texnik xato hisoblanadi). "Ilk devon"da گرمرويکی yozilgan.



Garmro ‘ (گرمرو) “*issiq yuzli, yulduzi issiq, oshiq*” ma’nosini beradi va asosan, kishining yuz ifodasini, ba’zan esa uning holatini ifodalashga xizmat qiladi (masalan, *Ey quyosh mehr ahlini kuydurma bu vodiya, kim, Garmro’ylar ohidin muncha haroratdur sango*). *Garmrav* (گرمرو) esa “*yo’rg’a, chaqqon, tezyurar*” degan ma’noga ega va birlamchi ot (hayvon) yoki biror narsaning shiddati, yurishi, tezligiga nisbatan ishlatiladi (masalan, *Garmrav ashku sovug’ oh ettilar ojiz meni, Vahki, ishqingdin yuzumg’a keldi ko’p issig’-sovug’*) [Fozilov, 1983: 398-399]. Ruboiyga diqqat qilamiz:

Har [garmraveki – garmro’yki], bo’lg’ay ul koshifi roz,

Maqsud harimi [qarimi] sari qilg’ach parvoz.

Tong yo’q falak uzra aylabon jilvayi noz,

Na’layni malakka bo’lsa mehrobi namoz.

Mazmuni:

Garmrav so’zi ishlatilganida: har bir chaqqon, jiddu-jahd qiluvchi (kishi) maqsad manzili sari parvoz qilsa (intilsa) oxir-oqibat sirlarni kash etuvchiga aylanadi.

Garmro ‘ so’zi ishlatilganida: har bir oshiq maqsad manzili sari parvoz qilsa (intilsa) oxir-oqibat sirlarni kash etuvchiga aylanadi.

Mahubqa e’timod [e’tiqod] qilmoq bo’lmas,

Andin talabi murod qilmoq bo’lmas.

Ko’zning qorasin midod qilmoq bo’lmas.

Gar bo’lsa bitig savod qilmoq bo’lmas.

Ruboiyda qoraytirib ajratib ko’rsatgan so’z “Ilk devon”da اعتماد bo’lib, “*ishonch*” ma’nosini ifodalaydi va misradan “*mahubga (doim ham) ishonib bo’lmaydi*” degan mazmun anglashiladi. Ushbu so’z o’rnida “Badoyi’u-l-bidoya”da *e’tiqod* so’zi ishlatilgan, bu so’z qo’llanilganida ham shoning ko’zlagan maqsad – misraning umumiy mazmuni saqlanib qoladi.

“Badoyi’u-l-bidoya” va “G’aroyibu-s-sig’ar” devonlari shoirning o’z nigohidan o’tgan bo’lsa, bunday farqlar yuzaga kelishining sababi nimada, degan haqli savol tug’iladi. Hamma gap mazkur devonlarning (shuningdek, boshqa devonlarning ham) asil nusxasining bizga qadar yetib kelmaganidadir. Nusxadan nusxa ko’chirish jarayonida shunga o’xshash farqlar yuzaga kelgan va bunday farqlar, afsuski, juda ham ko’p.

Alisher Navoiy asarlarining zamonaviy nashrlarida yo’l qo’yilgan texnik xatolar esa kechirib bo’lmasdir.



MUHOKAMA VA NATIJALAR

“Ilk devon”dagi ruboiylarning “Badoyi’u-l-bidoya” va “G‘aroyibu-s-sig‘ar” devonlariga qayta joriylanishi va transformatsiya jarayoni muhokama qilindi. Natijada:

1. Ruboiylar “Badoyi’u-l-bidoya” va “G‘aroyibu-s-sig‘ar” devonlariga joriylanish jarayonida turli xil transformatsiyaga uchragan. Ularning ayrimlari muallifning o‘zi tomonidan amalga oshirilgan, ayrimlari esa “Ilk devon”ning tartib beruvchisi (kotib: Sultonali Mashhadiy) va ehtimoliy buyurtmachisi (agar bor deb taxmin qilinsa) ixtiyorida ruboiylar yozma nusxada mavjud bo‘lmagan, matnlar yoddan ko‘chirilgan, degan taxminga dalolat qiladi.

2. “Ilk devon”dagi ruboiylar matni keyinchalik fonetik, morfologik, leksik, kompozitsion-stilistik o‘zgarishlar bilan boshqa devonlarga joriylangan. Bunday o‘zgarishlar Alisher Navoiyning o‘z tahriri natijasi ekanini alohida qayd etish shart.

3. Alisher Navoiyning o‘zi tomonidan amalga oshirilgan tuzatishlar (tahrir ishlari) shoir dunyoqarashi tadriji, ijodiy kamoloti haqida ilmiy xulosalar chiqarish uchun asos bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

“Ilk devon”dan Alisher Navoiyning ruboiy janridagi 41 ta ruboiysi o‘rin olgan. Mazkur ruboiylar keyinchalik shoirning o‘zi tomonidan “Badoyi’u-l-bidoya” va “G‘aroyibu-s-sig‘ar” devonlariga kiritilgan. Bir devondan ikkinchisiga ko‘chirilish jarayonida ruboiylar matnida turli o‘zgarishlar sodir bo‘lgan. Bu o‘zgarishlar fonetik, morfologik va so‘z qo‘llash bilan bog‘liq bo‘lib, ularning ayrimlari bevosita Alisher Navoiyning o‘zi tomonidan amalga oshirilgan tahririy ishlar sifatida e’tirof qilinsa, ayrimlari kotiblar tomonidan yo‘l qo‘yilgan jiddiy xatolar deb baholanadi. Ularni tuzatish va ilmiy, adabiy-lisoniy muomalaga kiritish Navoiy ijodi matnshunosligi oldida turgan dolzarb muammolardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Исҳоқов Ё. Алишер Навоийнинг илк лирикаси. –Т.: Фан, 1965. –140 б.
2. Ҳаққулов И. Ўзбек адабиётида рубоий. – Тошкент: Фан, 1981. –100 б.
3. Эргашева М. Алишер Навоий “Назм-ул-жавоҳир” асарининг матний тадқиқи. / Истиқлол даври ўзбек навоийшунослиги, 30-жилдлик, 10-жилд. –Тошкент: Tamaddun, 2022. –132-229 б.
4. Алишер Навоий. Илк девон. Факсимил нашр / Нашрга тайёрловчи Ҳ.Сулаймон. – Т.: Фан, 1968. – 294 б.
5. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати / Э.И.Фозилов таҳрири остида. 4 томлик, 1-том. –Т.: Фан, 1983. – 656 б.
6. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати / Э.И.Фозилов таҳрири остида. 4 томлик, 2-том. –Т.: Фан, 1985. – 636 б.